

## **XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHIDA BUXORODAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA JADIDCHILIK.**

*Jo‘raeva Muhlisaxon Alisher qizi*

*Andijon Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz tarixidagi yangi sharoit uning o‘tmishini baholashda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bu borada tarixchilar oldida keng yo‘l mavjud. Mustaqillik bunday ishlarga erkinlik bag‘ishlab, barcha davr va zamonlar tarixini haqqoniy yoritishda har qanday mafkuraviy nazorat va tahdidning qattiqqo‘l qoliplaridan ozod etish imkonini berdi. Buxoro tarixidagi jadidchilikning rolini baholashga ham tegishlidir. Keyingi paytlarda, Buxorodagi amir xukmronligi jadidlar tomonidan yo‘q qilib yuborilgan va ularning faoliyati XX asr boshlaridagi Buxoro iqtisodiyoti, madaniyati va diniy ishlariga ulkan talofat yetkazgan, degan fikrni ham eshitishga to‘g‘ri kelmoqda. Buxoroda XIX –XX asr boshlarida ahamiyati jihatidan butun bir tarixiy davrga teng keladigan jarayonlar kechgan zamonda nimalar ro‘y bergenini anglab yetish kerak.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro, Ahmad Donish, tarixchilar, Fitrat.

**Abstract:** New conditions in the history of our country require new approaches to evaluating its past. In this regard, historians have a long way to go. Independence gave freedom to such works and made it possible to free them from the strict patterns of any ideological control and threat in truthfully covering the history of all eras and times. It is also relevant to evaluate the role of modernism in the history of Bukhara. In recent times, it is necessary to hear the opinion that the emir's rule in Bukhara was destroyed by the Jadids, and their activities caused great damage to the economy, culture and religious affairs of Bukhara in the beginning of the 20th century. It is necessary to understand what happened in Bukhara in the early 19th and early 20th centuries.

**Key words:** Bukhara, Ahmed Donish, historians, Fitrat.

**Аннотация:** Новые условия в истории нашей страны требуют новых подходов к оценке ее прошлого. В этом плане историкам предстоит пройти долгий путь. Независимость дала свободу таким произведениям, позволила освободить их от жестких схем всякого идеологического контроля и угроз в правдивом освещении истории всех эпох и времен. Это касается и оценки роли модернизма в истории Бухары. В последнее время приходится слышать и мнение о том, что правление эмиров в Бухаре было разрушено джадидами, а их деятельность нанесла большой ущерб экономике, культуре и религиозному делу Бухары начала XX века. Необходимо понять происходившие в прошлом в Бухаре

в XIX начале XX веков процессы, равные по значимости целому историческому периоду.

**Ключевые слова:** Бухара, Ахмед Дониш, историки, Фитрат.

### **Kirish**

Ushbu maqolada o‘tgan asrlarda Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot yoritilgan bo‘lib ushbu jarayonlarning tarixiy ahamiyati ushbu maqolada turli ilmiy asarlar vositasida keng taxlil qilinadi.

### **Tadqiqot metodlari**

Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

### **Natijalar**

Ahmad Donishning izdoshi bo‘lgan Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo’stoniy o‘z davrida fan olamida mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyoda tuzilgan tazkiralarda uni taniqli tarixchi, adabiyotchi, shoir, xattot va “nutq ustasi” deb ta’kidlashadi. U amir Muzaffar xizmatida bo‘ladi va amir Abdulhamid davrida o‘n yil munshiy vazifasida ishlaydi. O‘tkan asr oxirlari va asrimiz boshlaridagi voqealar guvohi sifatida “Tarixi salotini mang’itiya dor ussaltanai Buxoroi sharif” asarini yozadi. Sovet manbashunosligida bu qimmatli asardan kerakli joyi “yilib” olinib foydalilanladi, Somiyning o‘zi ruslarga qarshi g‘oyalar targ‘ibotchisi deb baholashdi, “qo‘sib olishining taraqqiyatini ahamiyati”ni tushunmaslikda ayblandi.

Tarixchilar Somiyning ishdan iolinishi va saroydan haydalishi sababini atrofidagi mansabdorlarga va boshqaruv tizimining o‘ziga salbiy munosabatida ko’radilar. U she’riy asarlarida maishat va gunoh ishlarga berilgan saroy a’yonlari, amirning o‘zini ham tanqid ostiga oladi.

Somiydan farqli o‘laroq, Donish ruxoniylarning faoliyatini ham tanqidiy baholaydi, ular amir kabi raqib haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, ulkan olomonni yig’ib, qo‘liga kaltak berib, jihad yurishiga majbur qilgan va bu bilan aniq o‘limga yuborilgan. Abdulazim Somiy va Ahmad Donish feadal hukmdorlari haqida ham keskin fikr bildirib, xalqning og‘ir ahvolini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlashgan. Ular amir Abdulahad haqida yanada tanqidiy mulohazalar bildirdilar. Somiyning fikricha, uning hukmronlik davrida “temuriy o‘zbek xonligi ajdodlaridan asar ham qolmadi”, Ahmad Donishning qayd etishicha esa, yangi amir davrida hech nara o‘zgarmadi va xalqning ahvoli yaxshilanmadı.

Fitrat Buxoro jadidchiligining ko‘zga ko‘ringan vakili. Jamoat arbobi, olim, demokrat va yozuvchi – Sharq milliy-taraqqiyatparvarlik harakatidagi yorqin siymo. Ma’lumki, Buxoro – butun jahonga buyuk ilm kishilari vatani, mashhur olimlar, shoirlar, tabiblarni yetkazib bergen maskan sifatida mashhur bo‘lgan. Buxoro doim ta’lim- tarbiya vatani bo‘lgan, vaqf tizimi uning qiyinchiliksiz faoliyat yuritishini

ta'minlaydi. "Bayoni sayyohi hindi" yozilgan 1913-yilga kelib, Buxoroda 200 ta oliy, o'rta va quyi bo'g'indagi madrasa bo'lgan. Fitrat 3776000 tanga hisobida vaqf mablag'i bilan ta'minlangan 72 madrasa nomini keltiradi[1,15-bet]. Bu o'sha zamonda ulkan mablag' edi, biroq uning kichik qismigina tegishli joyiga sarflanib, asosiysi uni taqsimlovchilar cho'ntagiga tushgan. Xujralarni sotishdan mudarrislik o'rnigacha – hammasi pul turishi Buxoro uchun oddiy hol edi. "Olamga to'rt yuz olimni hadya etgan Buxoroi sharif shunchalik mustaqil ilmiy kuchga ega bo'lib edi, oh. Buyuk badbaxtlik bilan iqror bo'lamanki, hozir bu madaniyat quyoshining osmoni, bu insoniyat jannati, bu fozillar dunyosining ma'mur xonadoni, bu ma'rifat jahonining darsxonasi taraqqiyot uchun barcha vositalarga ega bo'lsa ham, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asiriligicha qolmoqda. Tirikchilik uchun barcha vositali bo'lishiga qaramasdan, yoqasini ajal panjasiga topshirgan", - deb yozadi Vatan dardi bilan yongan Fitrat.

Jadid tashkilotlarining maqsadlari kengayib, siyosiy tus olganligining sababi ikkita edi: birinchidan, 1914-1915-yillarda jadidchilik boshidan kechirgan inqiroz – gazeta va yangi usul maktablarining berkitilish hollari, hokimiyat jadidlarning bilimsizlik va g'aflatga qarshi kurash faoliyatini kengaytirishga yo'l bermasligi, shuningdek, busiz jamiyatda hech qanday o'zgarishlarga erishib bo'lmasligini ko'rsatdi. Ikkinchidan, jadidchilik harakatiga xorijda o'qib, chet eldag'i milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan, yosh kuch oqimi kelib qo'shildi. Ular madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, aniq aiyosiy vazifalar qo'yishni talab qildilar. Jadidlar bir-birga zid bo'lgan ikki oqimga – eskicha fikrlaydigan va Fitrat boshchiligidagi yoshlarga ajraldi. Natijada, o'zaro kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan birlik yuzaga keladi. Bu xolat esa kelishib olinmagan harakatlarga sabab bo'ldi. Natijada, amir manifestini qo'llash uchun o'tkazilgan tinch namoyish quvg'in etildi va jadidlarga qarshi qatag'onlar boshlandi. Fayzullo Xo'jayev ana shu so'l yoshlar guruhiga mansub bo'lib, keyinchalik ham shu pozitsiyada qoladi. Jadidlar keksa avlodlardan farq qilib, ochiq chiqishlar taktikasini xato hisoblamas edilar. Sadriddin Ayniyning fikricha, "Fitrat va F. Xo'jayev boshchiligidafi so'l guruh uzoqni ko'ra olmaganligi va vaziyatni to'g'ri tushunganligi tufayli jadidlar guruhi tor-mor etildi".

Fayzullo Xo'jayev o'z maqola va asarlarida "O'rta Osiyoda milliy- inqilobiy harakatga boshchilik qila oladigan kadrlarni tayyorlashda jadidchilik asosiy negiz bo'lganligini bir necga bor ta'kidlab o'tadi".

### **Xulosa.**

Hamma harakatlar ham ularning boshchilari xohlagandek tugayvermaydi. Biz ularning xatolarini sanashdan yiroqmiz, albatta. Shuncha kuch-g'ayrat, qon va jonlar sarflangan harakat o'z maqsadiga erisha olmaganligiga faqat afsuslanish mumkin, lekin jadidchilik g'oyasining o'zi mamlakatni to'laqonli rivojlantirishning falsafiy konsepsiysi sifatida bayon etadi.

**Foydalanimanadabiyotlar:**

1. Fitrat A. Xind sayyohining qissasi. „Sharq yulduzi” 1991,
2. S. Ayniy „Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar“ – Moskva 1926-yil.
3. Mustafo Cho‘qay o‘g‘li „Istiqlol jallodlari“ – Toshkent 1992-yil.
4. “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash “ – Toshkent 1999-yil.
5. “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklar“ – Toshkent 2001-yil.